

NUR SOCHGAN-KO'ZLAR, ISHONCH BERGAN-SO'ZLAR EGASI

Umirbayeva Barno Jamshid qizi

Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti

logopediya yo'nalishi 1- bosqich talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17378898>

Annotatsiya: Ushbu maqolada muallif o'z hayotida muhim o'rin tutgan ustozlarga bo'lgan samimiy minnatdorlik tuyg'usini ifoda etadi. Asarda Alisher Navoiy hikmatlari asosida ustozlikning ma'naviy mohiyati, ustozning jamiyat va shaxs hayotidagi o'rni yoritilgan. Muallif bir necha ustozlarini nomma-nom tilga olib, ularning insoniy fazilatlarini, mehribonligi, talabchanligi va ilmga bo'lgan fidoyiligini ta'riflaydi. Maqola orqali ustozlik kasbining muqaddasligi, bu kasb egalari uchun hurmat va e'tibor ko'rsatish har bir insonning burchi ekanini ta'kidlanadi. Asar o'quvchini ustozlarga mehr, ehtirom va sadoqat ruhida tarbiyalaydi.

Kalit so'zlar: ustoz, ta'lim, tarbiya, minnatdorlik, Alisher Navoiy, ilm va ma'rifat, murabbiy, mehr, sabr-toqat, o'qituvchi, ustozlik kasbi, shogird, komil inson, ustozga hurmat, jamiyat taraqqiyoti.

Har bir inson hayotida yo'l ko'rsatuvchi, yo'ldan adashgan paytda qo'lidan tutuvchi, qalbiga iliqlik baxsh etuvchi bir nur bo'ladi. Bu nur — ustozdir. Ustoz — hayot yo'limizdagi eng muhim yo'lbo'shchi, qalbimizda ishonch uyg'otuvchi va orzular sari yetaklovchi insondir. Bizning hayotimizda ota-onamiz bizni dunyoga keltirgan bo'lsa, ustozlar bizga hayotning asl ma'nosini, insonlikning mohiyatini o'rgatadilar. **“Har kimki bo'ldi ilm bila obod, ustozidin topdi anga yod.”** (Alisher Navoiy)

Buyuk mutafakkir Alisher Navoiy bu baytida insonning kamol topishi, ma'naviy yuksalishi ustoz bilan bog'liqligini chuqur falsafiy ma'noda ifoda etadi. Inson ilm va ma'rifatga faqat ustoz yo'l-yo'riqlari orqali erishadi. Shunday ekan, har bir muvaffaqiyatli insonning yo'lbo'shchisi — bu ustozdir. **Birinchi ustozim — Biysenova Aziza Qaldibekovna.** U juda mehribon, oqko'ngil va fidoiy inson. Bolalarning qalbiga iliqlik baxsh etgan, har bir o'quvchisini farzandidek ko'rgan ustoz. Uning samimiy so'zlari, mehr ila o'qitgan darslari hayotimda unutilmas iz qoldirgan. Har bir inson hayot yo'lida ilm va ma'rifat bebaho o'rin tutadi. Ilmning kaliti esa muallim qo'lidadir. Sharq mutafakkirlari, xususan Alisher Navoiy o'z asarlarida ustoz va murabbiylarning qadr-qimmatini ulug'lab kelgan. Uning mashhur baytida aytiladiki: **“Haq yo'lida kim senga bir harf o'rgatmish ranj ila, aylamak bo'lmas ado, uning haqin yuz ganj ila.”** Ustoz — bu ota-onadan keyingi ikkinchi ota-onadir. O'qituvchi faqat bilim beruvchi emas, balki insonni hayot yo'lida yo'lbo'shchi, ma'naviy tarbiyachi, sabr-toqat va adolat timsolidir. Navoiy baytida tilga olingan “bir harf” iborasi oddiy bilim emas, balki ma'naviy meros va hayotiy saboq ramzi sifatida tushuniladi. **Yo'ldasheva Zamira Kamilovna** — hayot maktabimdagi nurli yulduzlardan biri. Ustozim mehr bilan talabchanlikni uyg'unlashtira olgan, har bir o'quvchisiga onadek mehr bilan yondashgan inson edi. U har doim: “Har biringiz mening qizlarimsizlar, bolalarimsizlar,” — derdilar. Hali-hanuz bu so'zlar quloqlarim ostida jaranglaydi, yuragimni iliqlik bilan to'ldiradi. Zamira opa dars jarayonida nafaqat bilim, balki hayot saboqlarini ham berar, bizni ezgulik, mehnatsevarlik va insoniylik sari yetaklar edilar. Demak, insonni ilmga yetaklagan, unga savod bergan va to'g'ri yo'lni ko'rsatgan ustozning haqqi naqadar ulkan. Uni moddiy ne'mat bilan o'lchash mumkin emas. Bugungi kunda ham ustozlar — jamiyat taraqqiyotining asosiy kuchidir. Ularning mehnati tufayli yangi avlod tarbiyalanadi va yurt kelajagi bunyod bo'ladi. Xalqimizda **“Ustoz otadek ulug'”** degan hikmat bor. Darhaqiqat, ota bizga hayot bersa, ustoz bizni komil

inson qilib voyaga yetkazadi. Alisher Navoiy baytida aytilganidek, birgina harf o'rgatgan ustozning haqqini yuz ganj (oltin) bilan ado etib bo'lmaydi. Shu bois ustozni qadrlash va ularga hurmat ko'rsatish — barchamizning burchimizdir. Ta'lim-tarbiya jamiyat rivoji uchun muhim ahamiyatga ega bo'lib, bu og'ir yuk ta'lim ishi bilan bevosita shug'ullanadigan muallimlar zimmasiga tushadi. **Reyimbayev Atamurod** — abituriyentlik davrimdagi bilim sari yo'l ko'rsatuvchi ustozim. U inson har bir darsda nafaqat biologiya fanini, balki mehnat va sabrning qadrini ham o'rgatgan. Talabchan, lekin adolatli ustoz sifatida har bir shogirdining imkoniyatini ko'ra bilardi. U kishining har bir sabog'i orqasida qat'iyat, intilish va hayotga jiddiy qarash mujassam edi. Ba'zan qattiqqo'l, ammo yuragi mehrga to'la bu inson bizni natijaga yo'naltirgan, harakat qilishni, hech qachon taslim bo'lmaslikni o'rgatgan. **Nurimbetova Umida** — abituriyentlik davrimdagi ona tili va adabiyot ustozim. Ustozim mehribon, samimiy va har bir so'zning jozibasini o'quvchiga his qildirgan inson edi. U nafaqat grammatikani, balki so'zning qudratini, fikrni go'zal ifoda etish san'atini ham o'rgatgan. Har darsda bizga hayotiy saboq sifatida shunday aytardilar:

“Talaba bo'ling, talaba bo'ling — shunda hamma narsaga erishasizlar. Eng katta orzuvingiz — o'qishga kirish, oliy ma'lumotli bo'lish, keyin esa magistr o'qish bo'lsin,” — deya ruhlantirardilar. Bu so'zlar bizga kuch, ishonch va orzuga yetishish yo'lida harakat qilish zarurligini eslatardi. **Universitet hayotimdagi ustozlar** Universitet — nafaqat bilim dargohi, balki inson kamolotining yangi bosqichi hamdir. Bu bosqichda bizga yo'l ko'rsatadigan, hayot yo'limizni nur bilan yoritadigan insonlar — bu ustozlardir. Shunday ustozlardan biri — mehribon, ammo talabchan **Ismailova Dilafruz Muhiddinovna**. U kishining har bir so'zi, har bir qarori orqasida talabalar manfaatini o'ylash, ularning kelajagi uchun qayg'urish mujassam. Dilafruz Muhiddinovna — nafaqat o'qituvchi, balki insoniylik, adolat va mas'uliyat timsoli. U kishi mehr va talabchanlikni uyg'unlashtirgan holda har bir talabani to'g'ri yo'lga yo'naltiradi, o'ziga xos ustozlik maktabini yaratgan. Millat ravnaqi va voyaga yetayotgan yosh avlodning har tomonlama komil shaxs sifatida shakllanishini ta'minlashdek ulkan mas'uliyatni o'z zimmasiga ola bilgan ustoz va murabbiylar — haqiqiy kelajak bunyodkorlaridir. Mustaqil O'zbekiston Respublikasining iqtisodiyot, madaniyat, sport hamda ta'lim sohalaridagi yutuqlari ustozlarning mashaqqatli mehnati bilan bevosita bog'liqdir. Yurtimizda ustozlarning hurmat-ehtiromi va ularga qaratilayotgan e'tibor yuqori darajada bo'lib, bu kelajak bunyodkorlarini rag'batlantirishning muhim ko'rinishidir. Mana shunday ulug' va mashaqqatli kasb egalari orasida **Fayziyeva Ubayda Yunusovna** alohida ajralib turadi. Oddiy sog'lom bolaga dars o'tishning o'zi sabr-toqat talab qilsa, mehrga va alohida ta'limga muhtoj bolalarga dars berish bundan ham mashaqqatlidir. Ubayda Yunusovna dunyoning sir-sinoatini eshita olmaydigan, oddiy bolalarga qaraganda olamni tushunishi qiyin bo'lgan bolalarga ta'lim bergan. Umidsiz qalblarga bamisoli quyoshdek kirib umidlantirgan, zabonsiz yuraklarga quloq sola bilgan inson. Ubayda Yunusovna — haqiqiy matonat timsolidir. U o'zbek millatini o'z farzandlarini ona tilida o'qitishga katta hissa qo'shgan, maqsadi yo'lida har qanday to'siqlarni mardonavor yenggan, o'quvchilarga bilim bilan birga mehr ham bergan. Universitet hayotida menga katta ta'sir ko'rsatgan yana bir inson — **Sharipov Mirjalol Jamoliddin o'g'li**. U pedagogika fakultetining logopediya yo'nalishi 3-kurs talabasi bo'lishiga qaramay, o'z tashabbuslari bilan ko'plab foydali loyihalarni amalga oshiradi. Mirjalol Sharipov talabalarning ma'naviyatini boyitish, ularning ichki dunyosini nur bilan to'ldirish yo'lida fidokorona mehnat qiladi. U nafaqat turk tili o'qituvchisi, balki doimo talabalarga ma'naviy tayanch, yo'l ko'rsatuvchi, mehribon maslahatchi

sifatida e'tirof etiladi. Uning samimiyligi, mehnatsevarligi va insonparvarligi bilan har bir talaba qalbidan joy olgan. Ularning har biri o'z mehrini, g'amxo'rligini va tajribasini biz — kelajak avlod vakillariga bag'ishlagan. **Xulosa qilib aytganda**, ustozlik kasbi mashaqqatli, sabr-toqat talab qiladigan, lekin juda savobli kasbdir. Ularning har biri inson hayotida katta o'rin tutadi. Butun dunyo tanigan podshohlar, faylasuflar, shoirlar va yozuvchilarni ham o'qitgan inson — bu ustozdir.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Alisher Navoiy. Xamsa. — Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot, 2016.
2. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. — Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'qituvchi va murabbiylar kuni munosabati bilan" nutqlari.
4. Prezident.uz rasmiy sayti, 2020–2024 yillar.
5. Yo'ldoshev A. Pedagogika asoslari. — Toshkent: TDPU nashriyoti, 2019.
6. Hasanboyeva O., Yo'ldoshev J. Pedagogika nazariyasi va amaliyoti. — Toshkent: Fan va texnologiya, 2021.
7. Ustoz shaxsiyati va ta'lim-tarbiya jarayoni. — Toshkent: O'qituvchi, 2018.
8. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. — Toshkent, 2020.
9. Shavkat Mirziyoyev. Yangi O'zbekiston strategiyasi. — Toshkent: O'zbekiston, 2021.